

FARG'ONA VILOYATI DARYOLARI VA ULARNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Shomurodova Shahnoza G'ayratovna
g. f.f.d (PhD)**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Xoldorova Ziroatxon Rahmatjon qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida joylashgan daryo, ko'l va soylar haqida umumiylar ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, daryolarning tabiiy geografik o'rni dan kelib chiqib, turizmdagi ahamiyatli tomonlari yoritilib berilgan.

Tayanch so'zlar: daryo, ko'l, soy, sharshara, daryo havzasasi, tog' jinsi, relyef, paraplan, trekking, deltaplan.

RIVERS OF FERGANA REGION AND ITS IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

**Shomurodova Shakhnoza
Kholdorova Ziroatkhan**

Abstract: This article provides general information about rivers, lakes and streams in the Fergana region. It also highlights important aspects of tourism based on the natural geographical location of the rivers.


Key words: river, lake, stream, waterfall, river basin, rock, relief, paragliding, trekking, hang gliding.

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan daryo, ko'l, sharshara va soylar bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun asosiy tabiiy obyektlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Farg'ona viloyati O'zbekistonidagi eng muhim obikor dehqonchilik rivojlangan hududlardan biri. Viloyat hududida mavjud daryolar suvi kanallar orqali sug'orishga sarflanadi. U yerlarda shakllangan o'ziga xos tabiat manzaralari esa tashrif buyurgan turistlarni also befarq qoldirmaydi. Shu sababli daryolar, ko'llar, sharsharalar va soylar viloyatda ichki turizmni rivojlantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Farg'ona viloyati hududidagi barcha daryolar Sirdaryo havzasiga tegishli. Bu yerda daryo tarmoqlari notekis joylashgan bo'lib, viloyatning tabiiy geografik o'rni, relyefi va iqlim sharoitiga bog'liqdir. Hududini o'rab olgan tog' tizmalarida yog'inning miqdori, muzliklar, doimiy qorlar ko'p bo'lganligi sababli daryo tarmog'i zich va ular ancha sersuvdir, tog'oldi va tekislik qismida

esa kamroq [3, 680-b.]. Bunga sabab tog'lardan boshlangan sersuv daryolar tog'oldi va tekislik qismiga yetishi bilan sug'orishga sarflanadi, tog' jinslariga shimilib ketadi va harorat ko'tarilishi sababli, ular suvining ancha miqdori daryo havzalarida kamayib qolganligi sababli daryolarning ayrimlari Sirdaryoga yetib bormaydi.

Farg'ona viloyatining yirik daryosi Sirdaryodir. Daryo Norin va Qoradayolarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Sirdaryo viloyatning shimoliq'arbiy chegarasi bo'ylab oqadi. Dovon oshib kelayotgan har bir turist Farg'ona viloyati hududiga kirib kelishi bilan yo'l ustida qurilgan ko'priq orqali Sirdaryoning so'lim tabiatini maroq bilan tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, iyul-avgust oylarida daryoning to'lin suv davriga to'g'ri keladi va daryo bu vaqtida serjilo bo'lib, mavjlanib oqadi. Sirdaryoning suvi kanallar orqali sug'orishda keng foydalaniladi. Qo'shni Tojikiston hududida boshlanib, viloyatning Dang'ara tumanidagi Paxtaobod qishlog'i orqali o'tgan qismida ham daryo serjilo manzara aks etganini ko'rish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sirdaryoning O'zbekiston hududidan boshlangan qismi
(olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan suratga olingan)

Sirdaryoning chap irmog'i Qoradaryo Farg'ona tizmasining janubig'arbiy va Oloy tizmasining shimoliy yonbag'irlaridan boshlanib, Qora G'ulja va Tor daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryo suvining katta qismi sug'orishga sarflanadi. Chunki daryodan Katta Farg'ona, Shahrixonsoy, Paxtaobod kanallari suv oladi. Qoradaryoning uzunligi – 277 km, suv yig'ilish maydoni – 28 630 km² bo'lib, daryo qor-muzlik suvidan to'yinadi. V.L.Shulsning (1958) ma'lumotiga ko'ra, Norin daryosi Sirdaryoning 77%, Qoradaryo esa 23% suvini beradi. Sirdaryoning yana bir sersuv irmog'i bu Isfara daryosi o'zining yuqori oqimida Karavshin nomi bilan atalib, unga

Kshemish nomli irmog'i qo'shilgandan so'ng Isfara nomini oladi. Daryoning uzunligi – 130 km, suv toplash maydoni 2890 km². Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Isfara qishlog'i yonida 14,3 m³/s, eng ko'p suv sarfi 120 m³/s, eng kami esa 1,6 m³/s ga teng.

Isfayram daryosi Oloy tizmasidan dengiz sathidan 3800-5200 metrdan ortiq balandliklardan boshlanadi. Daryoning uzunligi – 107 km, suv yig'ish maydoni – 2230 km² ni tashkil qiladi. Muz-qorlardan to'ynadigan daryolar guruhiga kiradi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Uchqo'rg'on qishlog'ida 22 m³/s. Daryo botiqqa chiqishi bilan uning suvi kanallar orqali sug'orishga sarflanadi.

So'x daryosi Oloy va Turkiston tizmalarining Matchoh tog'idan boshlanadi. Uning uzunligi – 94 km. Daryo vodiysi viloyatning tog'li qismida tor dara shaklida bo'lib, Sariqqa'rg'on qishlog'i yaqinida tog'dan chiqib, o'zining yoyilmasi kengayib, yelpig'ichsimon shaklida tarmoqlarga va kanallarga bo'linib ketadi. Daryoning umumiy suv toplash maydoni – 2468 km². Daryoda eng ko'p suv sarfi iyul oyida kuzatiladi. Eng kam suv sarfi yanvarning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Shohimardon daryosi Oloy tizmasidan boshlanuvchi Oqsuv va Ko'ksuv daryosining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryo Farg'ona viloyatining Vodil qishlog'iga yetgandan so'ng, kengayib bir qancha tarmoqlarga bo'linib oqadi va sug'orishga sarf bo'ladi. Uning uzunligi – 76,8 km, suv yig'ish maydoni – 1420 km², o'rtacha yillik suv sarfi Pungan qishlog'ida 9,79 m³ /s ga teng. Shohimardon daryosining serjiloligi, mavjlanib oqishi hech bir kishini befarq qoldirmaydi [3, 52-b.]. Ayniqsa, daryo aprel-may oylarida sersuv bo'lib, to'lib oqadi. Tashrif buyurgan turistlar uchun trekkingdan, shuningdek, tez oqadigan soylarda esa raftingni rivojlantirish imkonini beradi. Yoz faslida esa daryo yaqinidagi salqin, bahavo hududlar sayyoqlar, dam olish istagida kelgan turistlar bilan gavjum bo'ladi.

Bundan tashqari viloyat hududida ko'llar, kanallar, suv omborlari, soylar va yer osti suvlari ham mavjud. Sug'oriladigan yerlar Katta Farg'ona va Andijon, Janubiy Farg'ona kanallari, Shohimardonsov, Marg'ilonsoy, shuningdek, Karkidon, Qo'rg'ontepa suv omborlari yordamida sug'oriladi. Katta yer osti suv zaxiralari ham mavjud bo'lib, ular turli tog' jinslari orasida qatlamaqtlama holda joylashgan bo'lib, 1500-3000 metr chuqurlikdan harorati 40-75°C bo'lgan issiq suvlari chiqadi [1, 391-b.]

Katta Farg'ona kanali (to'liq nomi: Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona kanali) ni alohida aytib o'tish joiz. Ushbu kanal viloyat hududida qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishdagi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kanal Farg'ona vodiysida qurilgan eng katta gidrotexnik inshootlardan biri. O'zbekiston (283 km), Tojikiston (62 km) va Qirg'iziston (13 km) hududidan oqib o'tadi. Vodiyni shimoli-sharqdan janubi-g'arbga kesib o'tgan. U Norin, Qoradaryo, So'x daryolaridan 532 m³/s suv oladi. Kanaldan Farg'ona viloyatidagi 125 ming hektar yerlarni sug'orishda foydalaniladi. Kanalga 1966-yilda kanal qurilishi tashabbuskorlaridan bo'lgan davlat arbobi Usmon Yusupov nomi berilgan. Bu kanalni ko'rish istagidagi turistlar soni ham talaygina.

Quyidagi jadvalda Farg'ona viloyatida mavjud bo'lgan daryolarning turistik ahamiyati yoritilgan.

1-jadval

Farg'ona viloyati daryolari va ularning turistik ahamiyati

N _o	Daryolar nomi	Uzunligi (km)	Suv sig'imi (m ³ /s)	Maydoni (kv. km)	Irmoqlari	To'yinish tipi	Turistik ahamiyati
1.	Sirdaryo	3019	540	219 000	Norin Qoradaryo	Qor-muz	Turistlar uchun daryo qayirlarida so'lim tabiatdan bahr olish va qayiqda suzish imkoniyatlari mavjud.
2.	Qoradaryo	277	1080	28630	Qora G'ulja Tor	Qor-muzlik	Daryoda baliq ovlash imkoniyati mavjud bo'lib, gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatini beradi.
3.	Isfara	130	22	2890	Karavshin Kshemish	Muz-qor	Daryoning to'lin suv davridagi manzarasini tomosha qilish uchun paraplandan foydalanish imkonini beradi.
4.	Isfayram	107	22	2230	Tengizboy Surmatosh	Muz-qor	Daryo suvining kanallarga ajralgan qismida o'zgacha manzara shakllangan. Bu esa trekkingdan foydalanish imkonini beradi.

5.	So'x	94	41,6	2468	Dalbek Xo'jaochkan	Muzlik	Bu daryoni takrorlanmas tabiatini tomosha qilish bilan birga qo'shni Qirg'iziston hududi tabiatni deltaplanda tomosha qilish imkoniyati mavjud.
6.	Shohimardon	76.8	9,79	1420	Oqsuv Ko'ksuv	Muz-qor	Tashrif buyurgan turistlar uchun daryo atrofidagi to'qaylarning o'ziga xosligi va iqlimining mo'tadil ekanligi hech bir tabiat shaydosini befarq qoldirmaydi.

Jadval muallif tomonidan Farg'on'a viloyatida olib borgan tadqiqotlar asosida tuzildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi jadvalda berilgan daryolarning hammasi muz-qor suvlaridan to'yinadigan daryolar guruhiga kiradi va shu guruhdagi daryolarga xos oqim rejimiga ega. Bu daryolarda eng ko'p oqim iyul-avgust oylarida, eng kam oqim esa mart-aprel oylarida kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi T.: "O'qituvchi", 2002. 391 b.
2. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T.: 2006. 52 b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 12-tom. Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 680 b.